

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI


"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor,
professor A.A. Elmurodov
«28» 11 2025 yil

60810900-AGRONOMIYA (YEM-XASHAK EKINLARI) TA'LIM
YO'NALISHINI 2025-2026-O'QUV YILI BITIRUVCHILARI UCHUN
"IXTISOSLIK" FANLARIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTASIYASI
SAVOLLARI

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti 60810900-Agronomiya (yem-xashak ekinlari)
ta'lim yo'nalishini 2025-2026-o'quv yili bitiruvchilari uchun "ixtisoslik"
fanlaridan yakuniy davlat attestasiyasi savollari**

I.Majburiy fanlar:

№	Fanlar nomi	Raqami
1.10	Dehqonchilik asoslari	1-30
1.17	Yangi ozuqa ekinlari	31-80
1.19	Yem-xashak ekinlari yetishtirishning resurstejamkor agrotexnologiyalari	81-120
1.21	O'simlikshunoslik	121-170
1.22	Ozuqa yetishtirishda ilmiy izlanish asoslari	171-200
1.23	Ozuqabop ekinlar yetishtirishda lalmi va sug'orma dehqonchilik	201-230
1.25	O'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish	231-270
1.27	Yaylov, cho'l o'simliklari urug'chiligi	271-300

**Chorvachilik va texnologiyalar
fakulteti dekani**

 **B. Nuriddinov**

**O'simlikshunoslik va yem xashak
yetishtirish kafedrası mudiri, professor**

 **N. Xalilov**

Tuzuvchilar:


**O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish
kafedrası professori, q.x.f.d**

 **I.T. Ergashev**

**Fakultet uslubiy kengashi raisi,
O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish
kafedrası dotsenti**

 **B.T. Mavlonov**

**O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish
kafedrası dotsenti**

 **Z. Muminova**

**O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish
kafedrası v.b dotsenti**

 **A. Omonov**

Taqrizchilar:

Umirzaqov E- O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedrası professori,
q.x.f.d

Duvlanov T. - Samarqand viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi Qishloq xo'jaligi
mahsulotlari yetishtirish sho'basi boshlig'i

2025-2026 o'quv yilida bitiruvchi 60810900 – Agronomiya (yem-xashak ekinlari), ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ixtisoslik fanlaridan Davlat Attestatsiya savollari

1. Dehqonchilik fani nimani o'rganadi va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat? (Dehqonchilik fanining mazmuni, o'simlik yetishtirishdagi ilmiy va amaliy vazifalari).
2. Dehqonchilikning qishloq xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati nimada? (Oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiyot bilan bog'liqligi).
3. Tuproq tushunchasi va uning dehqonchilikdagi ahamiyatini tushuntiring. (Tuproqning o'simlik hayotidagi asosiy roli).
4. Tuproq unumdorligi deganda nima tushuniladi va u qanday omillarga bog'liq? (Fizik, kimyoviy va biologik xossalar ta'siri).
5. Tuproqning mexanik tarkibi nima va uning turlari qaysilar? (Qumli, qumoq va loy tuproqlarning farqi).
6. Tuproq strukturasi va agregat holatining ahamiyati nimada? (Suv, havo va ildiz rivojiga ta'siri).
7. Yerga asosiy ishlov berish nima va uning vazifalari nimalardan iborat? (Shudgorlash va chuqur yumshatish maqsadi).
8. Yerga sayoz ishlov berish va uning afzalliklari nimalardan iborat? (Tuproqni saqlash va namni tejash).
9. Minimal va nol ishlov berish texnologiyalari nimani anglatadi? (Zamonaviy resurs tejamkor usullar).
10. Sug'orishning dehqonchilikdagi ahamiyati nimada? (O'simliklarning suvga bo'lgan ehtiyoji).
11. Sug'orish usullarini sanab bering va ularning farqini tushuntiring. (An'anaviy, yomg'irlatib va tomchilatib sug'orish).
12. Tomchilatib sug'orish texnologiyasining afzalliklari nimada? (Suv va o'g'it tejalishi).
13. O'simliklarning oziqlanish jarayoni qanday kechadi? (Ildiz orqali mineral moddalar o'zlashtirilishi)
14. Makroelementlarning o'simlik rivojiga ta'siri qanday? (Azot, fosfor va kaliyning vazifalari).
15. O'g'it tushunchasi va uning dehqonchilikdagi ahamiyatini izohlang. (Hosildorlikni oshirishdagi roli).
16. Organik o'g'itlarning turlari va ularning foydasi nimada? (Go'ng, kompost va chirindi ta'siri).
17. Mineral o'g'itlar va ularni qo'llash qoidalari qanday? (Azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlar).

18. Ekin almashinuvi tushunchasi va uning mohiyati nimada? (Ekinlarni navbat bilan ekish tizimi).
19. Ekish muddati va uning hosildorlikka ta'siri qanday? (Iqlim sharoitiga moslashuv).
20. Ekish usullarini izohlang va ularning farqini tushuntiring. (Qatorlab, lenta va sochib ekish).
21. Ekinlarni parvarishlash deganda nima tushuniladi? (Yumshatish, chopiq va sug'orish).
22. Begona o'tlar dehqonchilikka qanday zarar yetkazadi? (Oziqa va namlikni tortib olishi).
23. Begona o'tlarga qarshi kurashning asosiy usullari qaysilar? (Mexanik, kimyoviy va agrotexnik usullar).
24. Intensiv dehqonchilik tizimi nimani anglatadi? (Texnologiya va resurslardan samarali foydalanish).
25. Ekologik dehqonchilikning asosiy tamoyillari qanday? (Atrof-muhitni muhofaza qilish).
26. Dehqonchilikda innovatsion texnologiyalar nimalardan iborat? (Raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullar).
27. Hosildorlikni oshirishning asosiy yo'llari qaysilar? (Agrotexnika va parvarish tadbirlari).
28. Dehqonchilikda mehnat unumdorligi tushunchasi nimani anglatadi? (Kam mehnat bilan yuqori natija).
29. Dehqonchilikning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati nimada? (Aholi bandligi va daromad manbai).
30. Dehqonchilikning kelajak rivojlanish istiqbollari qanday? (Barqaror va zamonaviy qishloq xo'jaligi).
31. 1 tonna bug'doy, arpa donida qancha oziqa birligi va qancha hazm bo'ladigan protein bor?
32. Ozuqalik qiymati o'rganilgan o'simliklar. (a'lo, yaxshi va o'rtacha yeyiluvchan o'simliklarning ko'pchiligi qaysi oilaga mansubligini aytib bering)?
33. Bir yillik yem-xashak o'tlari vakillari (bir yillik raygrasning ahamiyati, biologiyasi, yetishtirish texnologiyasi)?
34. Bir yillik va ko'p yillik o'tlarning bir-biridan farqi nimada (ildizi, poyasi, guli va mevasi)? Ularga misollar keltiring?
35. Xashaki no'xat sistematikasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasini gapirib bering (haroratga, namlikka, oziqa moddalarga talabi)?
36. Afrika tarig'ining don uchun yetishtirish texnologiyasi (ekish muddatlari, meyorlari, ozuqlantirish) navlari.

37. Amaranatning xalq xo'jalik ahamiyati ustirish texnologiyasi (ekish muddatlari, meyorlari, parvarishlash).
38. Xashaki lyupin sistematikasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasini gapirib bering (haroratga, namlikka, oziqa moddalarga talabi)?
39. Ko'p yillik yem xashak o'tlari (suvbug'doyiq, yerkak o't, bo'ychan mastak)
40. Xashaki lyupin o'simligini botanik tavsifi va biologiyasi (sistematikasi, ildizi, poyasi, bargi, guli)
41. Xashaki vika o'simligini rivojlanish fazalarini tushuntirib bering?
42. Bahorgi yoki ekma vika –(*Vicia sativa* va kuzgi yoki sertuk vika-*Vicia villosa*) ga tavsif bering?
43. Ko'k no'xatning morfologiyasi yem-xashak sifatidagi o'rni haqida gapirib (sistematikasi, ildizi, poyasi, bargi, guli)
44. Ko'k no'xat turlarini ta'riflab bering (ularning bir biridan farqi, ahamiyati, ozuqaviy hususiyatlari)?
45. Hayvonlarni boqish uchun xashaki dukkak tarkibida protein miqdori qancha bo'lish kerak?
46. Xashaki dukkak morfologik belgilarini o'rganib oling (sistematikasi, ildizi, poyasi, bargi, guli)
47. Yer noki biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi (ozuqaviylik ahamiyati, morfologiyasi va hosildorligi)
48. Afrika tarig'ining sistematikasi, morfologiyasini tushuntirib bering (sistematikasi, ildizi, poyasi, bargi, guli)
49. Afrika tarig'ining biologiyasi va yetishtirish texnologiyasini aytib bering (haroratga, namlikka, oziqa moddalarga talabi)?
50. O'zbekistonda afrika tarig'ining qaysi navi yaratilgan (ularning bir biridan farqi, ahamiyati, ozuqaviy hususiyatlari)?
51. Amaranatning biologik xususiyatlari. (namga, haroratga, yorug'likka, ozuqaga) talabi.
52. Chumizaning doni tarkibi qanday moddalardan iboratligini gapirib bering (ularning miqdori, ahamiyati, chorvachilikdagi o'rni)?
53. Perko (yetishtirish texnologiyasi (ekish muddatlari, meyorlari, parvarishlash).
54. Hayvonlarni boqish uchun yasmiq o'simligining tarkibida protein miqdori qancha bo'lish kerak (ularning miqdori, ahamiyati, chorvachilikdagi o'rni)?
55. Yasmiq o'simligining morfologik belgilarini o'rganib oling (sistematikasi, ildizi, poyasi, bargi, guli)
56. Burchoq o'simligining urig'i tarkibida oqsil va protein miqdori qancha (ularning miqdori, ahamiyati, chorvachilikdagi o'rni)?
57. Burchoq o'simligining botanik tuzilishi haqida gapirib (sistematikasi, ildizi, poyasi, bargi, guli)
58. Bargak o'simligining doni tarkibida ozuqa birliklari qancha (ularning miqdori, ahamiyati, chorvachilikdagi o'rni)?

59. Bargak o'simligining navlariga ta'rif bering (ularning bir biridan farqi, ahamiyati, ozuqaviy xususiyatlari)?
60. Tritikale qanday yaratilgan va uni biologiyasini gapiring?
61. Donli ekinlar hosilini chamalang, oziqa birligini hisoblab bering?
62. Un sanoati chiqindilari va ulardan ozuqa sifatida foydalanishda xashaki bug' - doyning tutgan o'rni?
63. Tritikalening botanik tavsifi, biologik xususiyatlarini gapirib bering (haroratga, namlikka, oziqa moddalarga talabi)?
64. Tritikalening oziqaviylik qiymatlarini aytib bering (Ozuqa birligi, morfologik xususiyatlari)?
65. Tuganakmevali ekinlar vakillari ahamiyati (batat morfologiyasi yem-xashak sifatidagi o'rni).
66. Bir yillik g'allasimon o'tlarga qaysi ekinlar kiradi (ularning bir biridan farqi, ahamiyati, ozuqaviy xususiyatlari)?
67. Sudan o'ti o'simligining rivojlanish fazalarini tushuntirib bering?
68. Xashaki sholg'omning navlarini ta'riflab bering (ularning bir biridan farqi, ahamiyati, ozuqaviy xususiyatlari)?
69. Yer noki biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi (ozuqaviylik ahamiyati, morfologiyasi va hosildorligi)
70. Topinamburning 100 kg tuganagida qancha ozuqa birligi bor (Ozuqa birligi, morfologik xususiyatlari)?
71. Xashaki tarvuz morfologik belgilarini (ildizi, poyasi, bargi, guli, mevasi) ni o'rganib daftarga yozib borish?
72. Qovoq kenja turlarini o'rganing (ularning bir biridan farqi, ahamiyati, ozuqaviy xususiyatlari)?
73. Rapsning ahamiyati biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi (Ozuqa birligi, morfologik xususiyatlari)?
74. Sosnovskiy borshevigining biologik xususiyatlari haqida gapirib bering (haroratga, namlikka, oziqa moddalarga talabi)?
75. Tugmachagul O'zbekistonning qaysi hududlarida ekishga tavsiya etiladi (tugmachagulning qishloq xo'jaligida va chorvachilikda tutgan o'rni)?
76. Yem-xashak o'tlarining umumiy tavsifi. (Qishloq xo'jaligilagi ahamiyati, oilalari, guruhlanishi)
77. Kuzgi raps morfologik belgilariga ta'rif bering (sistematikasi, ildizi, poyasi, bargi, guli)
78. Perkoning xalq xo'jalik ahamiyati.
79. Perkoni tarqalishi kelib chiqishi hosildorligi.
80. Xantalning xalq xo'jalik ahamiyati yetishtirish texnologiyasi
81. Yem-xashak ekinlari yetishtirishning resurstejamkor agrotexnologiyalar" fanining ahamiyati, maqsadi va vazifasi.
82. Xashaki donli o'simliklar ahamiyati. Arpaning yetishtirishda resurstejamkor (tomchilatib yomg'irlatib sug'orish) texnologiyalarni qullash.

83. O'zbekistonda tomchilatib sug'orish tizimi asosan nechinchi yildan boshlab tajriba tariqasida bog'larga tadbiq qilina boshlagan.
84. Don ekinlari tuproqlarining unumdorligini saqlash va oshirish maqsadida ko'plab davlatlarda boshqoli don (No-till almashlab ekish) texnologiyasini ekinlarini yetishtirishda resurstejamkor qaysi texnologiyani qo'llash orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda?
85. No-till texnologiyasini (tuproqqa ishlov bermasdan ekinlarini yetishtirish) tushuntirib bering.
86. Tomchilatib sug'orish texnologiyasi tizimlarini (xovuz-tindirgich nasos qurilmasi gidrosiklon filtr) butlovchi qismlarini vazifasi.
87. Tomchilatib sug'orish (o'g'itlash moslamasi magistral bosh quvur) usulining elementlarining maqsadi.
88. Tomchilatib sug'orish (kuchma) usulidan foydalanish.
89. Hovuz-tindirgichlarning ahamiyati, maqsadi vazifasi (suvni tindirish suv zaxirasini saqlash).
90. Tomchilatib sug'orish tizimining (beton yoki temir-geomembrana) hovuz-tindirgichining turlari.
91. Tomchilatib sug'orish tizimlarida nasos qurilmalarning qaysi (elektr tokida ishlaydigan konsol tipidagi nasoslari va suyuq yonilg'ida ishlovchi) turlaridan qo'llaniladi.
92. Manometr (bosim o'lchagich) qanday holatlarda o'rnatiladi va foydalaniladi.
93. Yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi (ekin turi va suv iste'moli me'yorini aniqlash va sxemasi) tizimining gidravlik hisobi va loyihalash tartibi.
94. Hozirgi kunda an'anaviy (egatlab sug'orishda) sug'orish ishlarini olib borish uchun har 5 gektar maydonga necha nafar suvchi kerak bo'ladi.
95. Tomchilatib sug'orishda paxta, sabzavot kabi bir yillik ekinlarda hosildorlik necha foizgacha oshadi.
96. Aerozol sug'orishning ahamiyati suv sarfi, va harorat qanchaga kamayadi.
97. Bugungi kundagi tomchilatib sug'orish (o'simliklar turiga qarab) tizimlari nechanchi yilda o'zini- o'zini oqlaydi.
98. Tomchilatib sug'orishning ahamiyati va sug'orishda 20-25 gektar erga necha nafar suvchi kerak buladi.?
99. Yomg'irlatib sug'orish texnologiyasida (Qumli, to'rli, diskli) Filtrlar turlari va ahamiyati.
100. Yomg'irlatib sug'orish (suv sarfi kam) avzalligi va kamchiligi xaqida tushuntirib bering.
101. Yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini (ekinlar va yer sharoitlariga moslashgani va yuqori tejamkor) joriy qilish shart-sharoitlari.
102. Sug'orish sxemalari, magistral, tarqatuvchi quvurlar va ularni joylashtirish.
103. Yomg'irlatib sug'orish texnologiyasiga (Shamol tezligi va davomiyligi, m/sek Sho'rlanish darajasi) qo'yiladigan talablar
104. Yomg'irlatib sug'orish (tabiiy yomg'irlatishni imitatsiya qiluvchi sepush) tizimi o'zi nima?
105. Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda yomg'irlatib sug'orish tizimini joriy etishda inobatga olinishi zarur bo'lgan (Tuproqning mexanik tarkibi Shamol tezligi

va davomiyligi, m/sek) tabiiy omillar

106. Quyidagi sharoitlarda yomg'ir latib sug'orish texnologiyasining samaradorligi (kuchli sho'rangan va sho'r lanishga moyil yerlarda) pasayadi.

107. Yomg'ir latib sug'orish tizimi (Suv manbasi Nasos) ishlash tartibini tushuntirib bering.

108. Tomchilatib sug'orishda mineral o'g'itlarning tejalishi (o'simlik ildiz tizimiga bevosita berilishi) ekinlarning mineral o'g'itlarni o'zlashtirilishi qancha foizga yetadi.

109. Yerlarning tanazzuli va tuproq unumdorligining pasayishi – mintaqadagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi turg'unlik va o'sish sur'atlari tushib ketishining asosiy (Tuproq tanazzuliga e'tiborsizlik) sabablarni tushuntiring.

110. Aerozol sug'orish usulida qishloq xo'jaligi ekinlari uchun qanday qulay mikroiklim (haroratni pasaytiriladi) sharoiti yaratiladi.

111. Aerozol sug'orish usulining (o'simliklarda fotosintez jarayonini yaxshilaydi) avfzalliklarini tushuntirib bering:

112. Yomg'ir latib sug'orish texnikasi (yomg'ir tomchisining o'lchami) elementlari tushuntirib bering:

113. Avstraliyada mineral o'g'itlarni sug'orish suvi bilan erigan holda qo'llash azotli o'g'itlarni qanchagacha tejash imkoniyatini tushuntirib bering.

114. Magistral quvurlarning asosiy (taqsimlash quvirigacha yetkazib berish) vazifasini tushuntirib bering.

115. O'g'itlarni tayyorlash va suvga aralashtirish (o'g'itlovchi idish va dozatron) moslamasi vazifasi, qanday qisimlardan tashkil topgan.

116. Injektor tizimning o'g'it beruvchi moslamasining (o'g'it suviga bir tekisda qo'shilishini ta'minlaydi) vazifasini tushuntirib bering.

117. Tomchilatib sug'orish yomg'ir latib sug'orishlarga (suvning filtrasiya va bug'lanishga eng kam) nisbatan qanday afzalliklarga ega

118. Ekinlarga suvga bo'lgan talabi qaysi (iqlim, naviga, ekin turiga) ko'rsatkichlarga bog'liq.

119. Tomchilatib sug'orishda paxta, sabzavot kabi bir yillik ekinlarda hosildorlik necha foizgacha oshadi.

120. Aerozol sug'orishning ahamiyati suv sarfi, va harorat qanchaga kamayadi

121. Bahorgi bug'doyning biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va ekiladigan navlari.

122. Bedaning botanik ta'rifi, navlari, hosildorligi. (ildizi, bargi, poyasi, guli, mevasi).

123. Kartoshkaning biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), hosildorligi va navlari.

124. Arpaning biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va ekiladigan navlari.

125. No'xatni xalq xo'jaligida ahamiyati va hosildorligi, ekiladigan navlari.

126. Ko'k no'xatni biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va hosildorligi.

127. No'xatni biologik xususiyatlari (tuproqqa, namlikka, haroratga, yorug'likka talabi) va ekiladigan navlari.

128. Makkajo'xorining biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), ekiladigan navlar va kenja turlarini sanab bering.
129. Soyaning biologik xususiyatlari (tuproqqa, namlikka, haroratga, yorug'likka talabi).
130. Qand lavlagining biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va ekiladigan navlari.
131. Tuganak mevalilarning xalq xo'jaligida ahamiyati va vakillari, hosildorligi.
132. G'alladosh yem - xashak o'tlarining biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va vakillari.
133. Sulining xalq xo'jaligida ahamiyati va ekiladigan navlari, hosildorligi.
134. Maxsarning botanik ta'rifi va xalq xo'jaligida ahamiyati va navlari.
135. Jo'xorining xalq xo'jaligida ahamiyati, biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), ekiladigan madaniy turlari.
136. Javdarning biologik xususiyatlari (tuproqqa, namlikka, haroratga, yorug'likka talabi).
137. Yer yong'oqning botanik ta'rifi (ildizi, bargi, poyasi, gul to'plami, mevasining tuzilishi) va biologik xususiyatlari (issiqlikka, namlikka, yorug'likka talabi).
138. Tolali ekinlarning vakillari, ularning ahamiyati, biologiyasi, navlari.
139. Soyaning xalq xo'jaligida ahamiyati, biologiyasi (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va hosildorligi.
140. Dukkakli don ekinlarining biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), ahamiyati, vakillari.
141. Bahorgi bug'doyning morfologiyasi va biologiyasi (ildizi, poyasi, bargi, gul to'plami va O'zbekistonda ekiladigan navlari).
142. Bedaning biologik xususiyati, ahamiyati (tuproq unumdorligini oshirishda, almashlab ekishda, chorva oziqasi sifatida foydalanish).
143. O'zbekistonda ekiladigan kartoshka (tezpishar, o'rtapishar, kechpishar) navlarining biologik, xo'jalik tavsifi.
144. Kuchli va qimmatli bug'doylar, ular doniga qo'yiladigan talablar (oqsil, kleykovina, shishasimonligi, non hajmi) ekiladigan navlari.
145. Sholining biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va xalq xo'jaligida ahamiyati.
146. Don ekinlarining rivojlanish fazasini ayting (unib chiqish, maysalash, tuplanish, naychalash, boshoqlash, gullash, pishish).
147. Tariqning biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), xalq xo'jaligida ahamiyati, hosildorligi.
148. Moshning biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), ahamiyati, ekiladigan navlari va hosildorligi.
149. Tamakining xalq xo'jaligida ahamiyati va biologik (harorat, namlik, yorug'lik, tuproq) xususiyatlari.
150. Kuzgi va bahorgi g'alla ekinlarining biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) hamda farqlarini aytib bering.
151. Sulining botanik ta'rifi (turlari, ularning farqlari) navlari, hosildorligi.
152. Suv bug'doyi qning xalq xo'jaligida ahamiyati, biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va hosildorligi.

153. Bir yillik dukkakli o'tlarning vakillari ahamiyati, biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va hosildorligi.
154. Dukkakli don ekinlarining rivojlanish fazalarini aytib bering (unib chiqish, g'unchalash, shoxlanish, gullash, dukkaklash, pishish).
155. Marjumakning biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), xalq xo'jaligida ahamiyati.
156. Kanopning biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), xalq xo'jaligida ahamiyati, hosildorligi, navlari.
157. Raps, xantal, perkoning oraliq va moyli ekin sifatida ahamiyati.
158. Qand lavlagini birinchi va ikkinchi yil rivojlanish xususiyatlari (o'suv davri, barglar soni, ildiz mevani hosil bo'lishi, namlikka talabi).
159. Tritikale o'simligining yaratilishi, xalq xo'jaligida ahamiyati, biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi).
160. Sholini rivojlanish fazalari tavsifi, o'suv davri, hosildorligi, ekiladigan navlari.
161. Kungaboqarning ahamiyati, biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), hosildorligi.
162. Dukkakli don ekinlarining oqsil muammosini tuproq unumdorligini oshirishdagi ahamiyati, nitrogenni qullash.
163. Qattiq va yumshoq bug'doyning bir-biridan farqlari, ekiladigan navlari.
164. Nashaning botanik belgi va biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), navlari, hosildorligi.
165. Kuzgi va bahorgi g'alla ekinlarining biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) hamda farqlarini aytib bering.
166. Tolali ekinlarning vakillari, ularning ahamiyati, biologiyasi (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), navlari.
167. Qattiq bug'doyning xalq xo'jaligida ahamiyati, ishlatilishi, biologiyasi (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi) va navlari.
168. Narkotik ekinlarning biologik xususiyatlari (tuproqqa, haroratga, namlikka, yorug'likka talabi), vakillari.
169. O'zbekistonning lalmikor yerlar sharoitida pivobop arpani yetishtirish texnologiyasi (almashlab ekishdagi o'rni, tuproqni ishlash, ekish muddatlari, urug'sarfi, navlari).
170. Yeryong'oqni almashlab ekishdagi o'rni, tuproqni ishlash, ekin parvarishi, hosilni yig'ishtirish.
171. Vegetatsion tajribalarning ahamiyati va umumiy xususiyatlari (turlari, muhit, ahamiyati)
172. Vegetatsion tajribalarning klassifikatsiyasi va rejalashtirish (turlari, olib borish tartibi)
173. Hidroponik tajribalar, yopiq insho'atlarda olib boriladigan tajribalar (ahamiyati, turlari)
174. Tajriba dalasidan olingan ma'lumotlarni dala daftariga kiritish (kunlik ma'lumotlarni olish, ma'lumotlarga ishlov berish tartibi va usullari)
175. Lizimetrik tajribalarning klassifikatsiyasi (olib borish tartibi, hisoblash ishlarni olib borish)
176. Begona o'tlar miqdorini aniqlash, zararkunanda va kasalliklar miqdorini

aniqlash (o'simliklarni begona o'tlardan tozalash tartibi, turlarini aniqlash).

177. Tajriba uslubiyatining asosiy elementlari (variantlar soni, uchastkaning shakli va yo'nalishi)

178. Takrorlarni joylashtirish tartibi (hosilni hisobga olish, tajriba vaqti va ularning tajriba xatosiga ta'siri)

179. Variantlar soni, takror va takrorliklar, bo'lakchalarning shakli va yo'nalishi.

180. Laboratoriya sharoitida olib boriladigan tadqiqotlar (turlari va ularni tahlil qilish)

181. Dala tajribasi turlari (dala uchastkasiga bo'lgan talablari)

182. Tajriba uchun dala tanlash (dala tuprog'i, ob-havo va reliefi xaqida tushunchalarga ega bo'lish)

183. Dala tajribasida variantlar soni (dala tajribasida takrorlashlar va tadqiqot natijalarining aniqligiga ta'siri)

184. Tadqiqotlarning laboratoriya usuli (vegetasion, lizimetrik, muhit sifatida suv, qum va tuproqdan foydalanish).

185. Ilmiy agronomiyaning asosiy usullari (variant, standart-nazorat va tajriba tizimi xaqida tushuncha).

186. Dala tajribasini o'tkazish sharoitlarning xususiyatlari (tuproq – iqlim omillarining xar xilligi va mavsumiylik bilan bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlik)

187. O'simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlarida lizimetrik tajribalar uchun kerakli jihozlarni tanlash (tajribadan olingan ma'lumotlarga ishlov berish)

188. O'simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlarida ko'chat qalinligini aniqlash (hosildorlikni aniqlash)

189. Tajriba dalasida takrorlarni joylashtirish tartibi (hosilni hisobga olish, tajriba vaqti)

190. Tajriba dalasida variantlar soni, takror va takrorliklar (bo'lakchalarning shakli va yo'nalishi)

191. Tajribada himoya yo'laklari (dala tajribasi tushunchasi, uslubiyat va uning asosiy elementlari)

192. Dala tajribasini o'tkazishdagi xatolar (sabablari, tajriba uslubiyatining asosiy elementlari)

193. Laboratoriya sharoitida olib boriladigan tadqiqotlar (turlari va ularni tahlil qilish)

194. Ilmiy muassasalarning tajriba o'tkazish xususiyatlari (ilmiy tajribaning prinsiplari)

195. Tuproq sharoitining bir xilligiga qo'yiladigan talablar (yer tanlash va tajribaga tayyorlash)

196. Kuzgi bug'doyda fenologik kuzatishlar o'tkazish uslublari (rivojlanish fazalarini kuzatish, ularni dala daftariga qayd qilib borish)

197. Dala tajribasini o'tkazish sharoitlarning xususiyatlari: tuproq – iqlim omillarining xar xilligi va mavsumiylik bilan bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlik.

198. O'simliklarning sovuqqa chidamliligini aniqlash (chidamlilik darajalari)

199. O'simliklarning yotib qolishga chidamliligini aniqlash (chidamlilik darajalari)

200. Begona o'tlar va uning turlari (dala uchraydigan bir va ko'p yillik begona o'tlarni aniqlash va hisoblash, xo'l va quruq vazni)
201. Ozuqabop ekinlar deganda nima tushuniladi va ularning chorvachilikdagi ahamiyati nimada?(Chorva uchun yem-xashak yetishtirishdagi o'rni va ahamiyati)
202. Lalmi dehqonchilik tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?(Tabiiy yog'ingarchilikka asoslangan dehqonchilik tizimi)
203. Sug'orma dehqonchilik nima va uning asosiy vazifalari qanday?
(Sun'iy sug'orish orqali barqaror hosil olish)
204. Lalmi va sug'orma dehqonchilikning asosiy farqlari nimada?(Suv manbai, hosildorlik va xavf omillari)
205. Ozuqabop ekinlarni yetishtirishda suvning ahamiyati qanday?
(O'simliklarning o'sishi va biomassa hosil bo'lishiga ta'siri)
206. Lalmi sharoitda ozuqabop ekinlar uchun tuproqni tayyorlash qanday amalga oshiriladi?(Nam saqlash va tuproqni yumshatish tadbirlari)
207. Sug'orma dehqonchilikda yerga ishlov berish tizimi qanday bo'ladi?
(Sug'orish bilan bog'liq agrotexnik tadbirlar)
208. Lalmi sharoitga mos ozuqabop ekin turlari qaysilar?(Qurg'oqchilikka chidamli ekinlar)
209. Sug'orma sharoitda keng ekiladigan ozuqabop ekinlar qaysilar?(Yuqori hosilli yem-xashak ekinlari)
210. Ozuqabop don ekinlarining dehqonchilikdagi o'rni nimada?(Don va poya massasi orqali yem bazasi)
211. Dukkakli ozuqabop ekinlarning ahamiyati nimada?(Oqsilga boy yem manbai)
212. Ko'p yillik ozuqabop o'tlarning afzalliklari qanday?(Tuproqni yaxshilash va barqaror yem olish)
213. Bir yillik ozuqabop ekinlarning xususiyatlari nimalardan iborat?(Tez o'sish va qisqa vegetatsiya davri)
214. Lalmi sharoitda urug' tanlash va ekish muddati qanday belgilanadi?
(Yog'ingarchilik va iqlimga moslashuv)
215. Sug'orma sharoitda ekish muddati va usullari qanday? (Suv bilan ta'minlangan holda ekish texnologiyasi)
216. Ozuqabop ekinlarni o'g'itlashning asosiy tamoyillari qanday?
(Biomassa hosilini oshirishga qaratilgan)
217. Lalmi dehqonchilikda o'g'itlardan foydalanishning o'ziga xosligi nimada?
(Namlilik tanqisligini hisobga olish)
218. Sug'orma dehqonchilikda mineral o'g'itlardan foydalanish qanday amalga oshiriladi? (Sug'orish bilan birgalikda qo'llash)
219. Ozuqabop ekinlar uchun sug'orish me'yorlari qanday belgilanadi?(Ekin turi va rivojlanish bosqichiga bog'liq)
220. Lalmi sharoitda namni tejash usullari qaysilar? (Mulchalash va minimal ishlov berish)
221. Ozuqabop ekinlarni parvarishlash ishlari nimalardan iborat? (Yumshatish, begona o'tlarni yo'qotish)
222. Begona o'tlar ozuqabop ekinlarga qanday zarar yetkazadi? (Hosil va yem sifati pasayishi)

223. Zararkunandalar va kasalliklar ozuqabop ekinlarga qanday ta'sir ko'rsatadi? (Biomassa kamayishi va oziqaviy qiymatning pasayishi)
224. Lalmi va sug'orma dehqonchilikda o'simliklarni himoyalash tizimi qanday bo'ladi? (Kompleks himoya choralari)
225. Ozuqabop ekinlarni o'rib-yig'ishtirish muddati nimaga bog'liq? (Oziqaviy qiymat va pishish bosqichi)
226. Pichan va silos uchun ozuqabop ekinlarni yig'ish texnologiyasi qanday? (Ozuqa sifatini saqlash usullari)
227. Lalmi sharoitda hosildorlikni oshirishning asosiy yo'llari qaysilar? (Agrotexnik va seleksiya tadbirlari)
228. Sug'orma dehqonchilikda yuqori yem hosili olish omillari nimalardan iborat? (Sug'orish, o'g'itlash va texnologiya uyg'unligi)
229. Ozuqabop ekinlar yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi nimada namoyon bo'ladi? (Chorvachilik xarajatlarini kamaytirish)
230. Lalmi va sug'orma dehqonchilikda ozuqabop ekinlar yetishtirishning kelajak istiqbollari qanday? (Barqaror yem bazasini rivojlantirish)
231. Uyg'unlashgan kurash tizimining mohiyati (agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralari qo'llash usullari va ketma ketligi).
232. Zararli xasvalarga qarshi kurash (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi va ularga qarshi kurashda o'tkaziladigan kurash usullari).
233. Zang kasalligiga qarshi kurash (kasallik qo'zg'atuvchisi, tarqalishi, rivojlanishi, kasallik alomatlarini hamda kurash usullari).
234. Agrotexnik kurash usullari (kuzgi shudgor, ekish muddati, qator oralariga ishlov berish, sug'orish va boshqa agrotexnik tadbirlarini o'tkazilishini o'simliklarni himoya qilishdagi o'rni va ahamiyatini yoritish).
235. G'alla ekinlari uyg'unlashgan himoya qilish (kasallik va zararkunandalariga qarshi o'tkaziladigan kurash choralari misollar asosida yoritish).
236. Zararkunandaning tur tarkibini aniqlash (tuproq osti va ustki zararkunandalarni hisobga olish usullarini yoritish).
237. Kasallik qo'zg'atuvchilarning tur tarkibini aniqlash (qo'zg'atuvchilarni o'simlikdagi asosiy alomatlariga ko'ra farqlanishini yoritish).
238. Begona o'tlarni tur tarkibini aniqlash (tuproqda, o'simlik urug'lari orasida begona o't urug'larini aniqlash va ularga misollar keltirish).
239. Arpani zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi va ularga qarshi kurashda o'tkaziladigan kurash usullari).
240. Xasharotlarning morfologik tuzilishi (bosh, ko'krak, qorin qismlarining tuzilishi va tiplarini yoritish).
241. Kanalarni morfologik tuzilishi (2 juvt hamda 4 juvt oyoqli kanalar ularning tanasi tuzilishi).
242. Ko'sak qurtining IXS ni aniqlash (feramon tutqichlardan foydalanish, ko'sak qurtini hisobga olish va ularning IXCh mezonlarini aniqlashni yoritish).
243. Dukkakli ekinlarni uyg'unlashgan himoya qilish (kasallik va zararkunandalarining tarqalishi, zarari, bioekologiyasi va ularga qarshi kurashda o'tkaziladigan kurash usullari).

244. O'rgimchakkana uchun IXS ni aniqlash (zarari tarqalishi va sonini hisobga olish usulini yoritish).
245. Tok mevaxo'ri qurtiga qarshi uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi va ularga qarshi kurashda o'tkaziladigan kurash usullari).
246. Olma qurti uchun IXS ni aniqlash (zararkunandani hisobga olish va iqtisodiy xavf chegara mezonni aniqlash tartibi).
247. Bedani zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi va ularga qarshi kurashda o'tkaziladigan kurash usullari).
248. Kolorado qo'ng'izi uchun IXS ni aniqlash (zararkunandani hisobga olish va iqtisodiy xavf chegara mezonni aniqlash tartibi).
249. Poliz qo'ng'iziga qarshi uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi hamda ularga qarshi agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini yoritish).
250. Kungaboqarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandalarning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi hamda ularga qarshi agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini yoritish).
251. Makkajo'xori zararkunandalarini uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi va ularga qarshi kurashda o'tkaziladigan kurash usullari).
252. Kuzgi tunlam uchun IXS ni aniqlash (zararkunandani hisobga olish va iqtisodiy xavf chegara mezonni aniqlash tartibi).
253. Kimyoviy kurash usuli (pestitsidlarni tasniflanishi, ishlatish usullari va muddatlarini yoritish)
254. Mevaxo'rlarga qarshi uyg'unlashgan kurash tizimi (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi hamda ularga qarshi agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini qo'llash usullari va ketma ketligi).
255. Xashakli lavlagini zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish (agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini qo'llash usullari va ketma ketligi).
256. Bedani zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi hamda ularga qarshi agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini qo'llash usullari va ketma ketligi).
257. Biologik kurash usuli (entomofaglarning tur tarkibi, ko'paytirilishi, va turlari).
258. Fizik-mexanik kurash usuli (turli nurlarning zararli organizmlarga qarshi ta'siri, mexanik kurashdaga asosiy elementlar.)
259. Xashakni lavlagi kasalliklaridan uyg'unlashgan himoya qilish (kasallik qo'zg'atuvchisi, tarqalishi, rivojlanishi, kasallik alomatlarini hamda kurash usullari).
260. Karantin kurash usuli (ichki va tashqi karantin chegara postlari, ularning mohiyati).

261. Kartoshka zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi hamda ularga qarshi agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini qo'llash usullari va ketma ketligi)
262. Poliz ekinlari zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi hamda ularga qarshi agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini qo'llash usullari va ketma ketligi)
263. Qalqondorlarga qarshi uyg'unlashgan kurash tizimi (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi hamda ularga qarshi agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini qo'llash usullari va ketma ketligi).
264. Poliz ekinlarida o'rgimchakkanaga qarshi uyg'unlashgan himoya tizimi (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi hamda ularga qarshi agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini qo'llash usullari va ketma ketligi).
265. Biologik usulda qanday vositalardan foydalaniladi va ularning ta'rifi (trixogramma, brakon, oltinko'z, inkarziya va boshqa entomofaglardan misollar keltirib yoritish).
266. Poliz ekinlarini kasalliklardan uyg'unlashgan himoya tizimi (kasallik qo'zg'atuvchisi, tarqalishi, rivojlanishi, kasallik alomatlari hamda kurash usullari).
267. O'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish fanining maqsadi va vazifasi (obektlari, rivojlanish tarixi).
268. Poliz ekinlarini zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish (zararkunandaning tarqalishi, zarari, bioekologiyasi hamda ularga qarshi agrotexnik, kimyoviy, biologik, fizik mexanik va boshqa kurash choralarini yoritish).
269. Mexanik usulda qaysi vositalar qo'llaniladi va ularni yoritish (kasallik va zararkunandalarga qarshi mexanik kurashning mohiyati yoritiladi).
270. Beda kasalliklardan uyg'unlashgan himoya qilish (kasallik qo'zg'atuvchisi, tarqalishi, rivojlanishi, kasallik alomatlari hamda kurash usullari).
271. Urug'chilik borasida qabul qilingan qarorlar ("Urug'chilik to'g'risida"gi qabul qilingan qaror).
272. Urug'chilikning nazariy asoslari (maqsadi va vazifalari, rivojlanish tarixi, boshqa fanlar bilan aloqasi).
273. "Urug'chilik to'g'risida"gi qonunning 3 – moddasida keltirilgan asosiy tushunchalar (aprobatsiya, urug'lik, duragay urug'liklar, original urug'liklar va x.k.).
274. "Urug'chilik to'g'risida"gi qonunda keltirilgan urug'chilikning asosiy vazifalari (o'z urug'chilik bazasini yaratish, genofondini saqlab qolish va x.k.).
275. Urug'chilik tizimining asosiy tarmoqlari (seleksiya, nav sinash, urug'chilik, nav va urug' nazorati).
276. Urug'chilik tizimi va sxemasi (maqsadi, vazifalari, tashkil etish).
277. Urug'chilikda nav almashtirish va nav yangilash (sabablari, amalga oshirish tartibi, olib boriladigan ishlar).
278. O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti (O'zDst) bo'yicha urug'larga

quyidagicha umumiy talablar (navdorlik va ekish sifatleri, urug'larni klassifikatsiyalash).

279.Urug'larning ifloslanish sabablari (mexanik, biologik, belgilarning ajralishi va x.k.).

280.Nav almashtirish tushunchasi (maqsadi va vazifasi, almashtirishning iqtisodiy samaradorligi).

281.Urug'larning mahsuldorlik sifatiga agroekologik sharoitning ta'siri (iqlim, tuproq, agrotexnik omillar).

282.Yaylov - cho'l o'simliklarining nav va urug' nazorat ishlari (davlat nav nazorati, urug' nazorati, olib borish tartibi).

283.Aprobasiya haqida tushuncha (maqsadi, olib borish va rasmiylashtirish tartibi).

284.Urug'liklarni saqlash jarayonida rioya qilinadigan talablar (tozalash, quritish va x.k.).

285.Urug'larning ekish sifatini aniqlashning ahamiyati (umumiy tushunchalar, sifatini aniqlashda uning holati va xususiyatini bilish).

286.Buta va yarim buta ekinlarining urug'chiligi (izen, keyreuk, cho'g'on, terezken misolida).

287.Yaylov-cho'l ekinlari urug'lariga qo'yiladigan talablar va ularning klassifikatsiyasi (yaylov cho'l ekinlarida OU,EU va RU lar xaqida ma'lumot).

288.Davlat standarti bo'yicha qo'yiladigan talablar (konditsion urug' tushunchasi va ularga qo'yiladigan talablar).

289.Urug'lar navdorlik sifati bo'yicha kategoriyalari (birinchi, ikkinchi va uchinchi kategoriyalar xillari).

290.Urug'chilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarning vazifalari (birlamchi urug'chilikning samarali tizimini va urug' yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish hamda joriy etish va x.k.).

291.Realizatsiya qilinadigan urug'liklarga kafolatlar (urug'liklar yetishtirish va ularni realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar vazifalari).

292.Urug'chilikni ilmiy jihatdan ta'minlash (Vazirlik va ilmiy tadqiqot institutlarida olib boriladigan ishlar).

293.O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining urug'chilik sohasidagi vakolatlari (urug'chilik sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya yetilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestrini yuritish).

294.O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasining urug'chilik sohasidagi vakolatlari (paxta va don ekinlarining urug'liklari sifati ustidan nazoratni amalga oshirish, genetik soflikni nazorat qilish).

295.Urug'larning ekishga yaroqliligini aniqlash (zarur ko'rsatkichlar, aniqlash usuli).

296.Urug'larning ekish meyorlarini aniqlash (ekishga yaroqlilik ko'rsatkichlaridan kelib chiqib).

297. Urug'chilik maydonlarini parvarishlashda asosiy e'tibor (begona o'tlarga va zararkunandalarga qarshi kurashish).

298. Urug'larni yig'ib-terib olishning optimal muddatlarini belgilashning ahamiyati (urug'da kechadigan morfologik, fiziologik jarayonlar).

299. Urug'larni sifatini oshirishda tozalashning ahamiyati (quritish, tozalash usullari, olib boriladigan tadbirlar).

300. Yaylov o'simliklarining urug'larini ekish fitomelioratsiyalash usuli (sun'iy usul, ishlov berish, changlantirish).